

O'ZBEKISTONDA MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Muzafarov Akmal Axmadovich

Buxoro viloyati hokimining

turizm, madaniyat, madaniy meros va ommaviy

kommunikatsiyalar masalalari

bo'yicha o'rinbosarining kotibiyati mudiri

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 17.01.2026

Revised: 18.01.2026

Accepted: 19.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Mustaqil turizm,
turizm bozori, turistik
infratuzilma, raqamli
turizm, turistlar oqimi,
tashkiliy mexanizmlar,
ichki turizm, xizmatlar
bozori, turizmni
rivojlantirish.*

Mazkur tadqiqot ishida mustaqil turizm tushunchasining nazariy asoslari, uning zamonaviy turizm bozoridagi o'rni hamda O'zbekistonda, xususan mustaqil turistlar oqimini oshirishning tashkiliy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar, milliy qonunchilik hamda rasmiy statistika ma'lumotlari asosida mustaqil turizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritib berilgan. Mustaqil turizmning raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'liqligi, vositachilik xarajatlarini qisqartirishdagi roli va ichki turizmni faollashtirishdagi ta'siri asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida O'zbekistonda mustaqil turistlar oqimini oshirishga qaratilgan tashkiliy mexanizmlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ular turizm infratuzilmasini takomillashtirish va hududiy turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi

Kirish

Globallashuv va raqamli iqtisodiyotning rivojlanib borishi sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

So'nggi yillarda turistlarning sayohatni mustaqil tashkil etishga bo'lgan intilishi kuchayib, mustaqil turizm alohida bozor segmenti sifatida ajralib chiqmoqda. Ushbu turizm turi turistlarga sayohat jarayonining barcha bosqichlarini – marshrut tanlash, transport, joylashuv, ovqatlanish va ekskursiya xizmatlarini mustaqil ravishda rejalashtirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi va qulay geografik joylashuvi mustaqil turistlar uchun katta salohiyatni taqdim etadi.

Shu bilan birga, mustaqil turistlar oqimini oshirish mavjud turizm infratuzilmasi, axborot ta'minoti, transport-logistika tizimi va xizmatlar sifati bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur sharoitda mustaqil turizmni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Xalqaro miqyosda M.M.Harun, R.Hamat, H.Ibrahim, G.Richards, J.Wilson, W.J.Huang, W.C.Norman, J.C.Hallo, N.G.Mcgehee, J.Mcgee, C.L.Goetcheus, L.Harris, K.Duckworth, K.Hyde, R.Lawson, E.Wilson, C.Harris, C.Paris, O.A.Fintine, T.Burak, M.Oborin, I.S.Ziryanova, S.Sisoyeva, A.Drupova⁷⁷ singari tadqiqotchilar mustaqil turizmning turli

⁷⁷ Harun M. M., Hamat R., Ibrahim H. Adapting to the Era of Independent Tourism: Challenges and Opportunities for Travel Agencies //Borneo Engineering & Advanced Multidisciplinary International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 2. – С. 49-56; Richards G., Wilson J. The global nomad: Motivations and behaviour of independent travellers worldwide //The global nomad: Backpacker travel in theory and practice. – 2004. – T. 3. – С. 14-42; Huang W. J. et al. Serendipity and independent travel //Tourism recreation research. – 2014. – T. 39. – №. 2. – С. 169-183; Harris L., Duckworth K. The future of the independent travel agent: the need for strategic choice //Strategic Change. – 2005. – T. 14. – №. 4. – С. 209-218; Hyde K. F., Lawson R. The nature of independent travel //Journal of travel research. – 2003. – T. 42. – №. 1. – С. 13-23; Wilson E., Harris C. Meaningful travel: Women, independent travel and the search for self and meaning //Tourism: An International Interdisciplinary Journal. – 2006. – T. 54. – №. 2. – С. 161-172; Paris C. M. Flashpacking: A discussion of independent travel in a digital world //Information and communication technologies in tourism 2012. – Springer, Vienna, 2012. – С. 191-202; Фынтынгэ О. А. САМОСТОЯТЕЛЬНЫЙ ТУРИЗМ В СИСТЕМЕ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНДУСТРИИ //Совершенствование системы физического воспитания, спортивной тренировки, туризма и оздоровления различных категорий населения. – 2015. – С. 154-155; Бурак Т. В. Знаковые структуры самостоятельного путешествия и организованного туристического выезда. – 2016; Оборин М. С. Развитие самостоятельного туризма как актуальная тенденция спроса //Сервис plus. – 2022. – Т. 16. – №. 1. – С. 15; Зырянова И. С. САМОСТОЯТЕЛЬНОЕ ПУТЕШЕСТВИЕ: СТРУКТУРА ЗАТРАТ Пермский государственный национальный исследовательский университет //Т 878 Туристско-рекреационный комплекс в системе регионального развития: материалы VII Междунар. науч.-практ. конф.–Краснодар: Кубанский гос. ун-т, 2019.–360 с.–120 экз. – С. 254; Сысоева С. Путешествия без турагентств. – ЛитРес, 2017; Друпова А. А. Информационная и кадровая поддержка самостоятельного туризма //Экономика. Право. Печать. Вестник КСЭИ. – 2018. – №. 3. – С. 24-29; Hyde K. F., Lawson R. The nature of independent travel //Journal of travel research. – 2003. – T. 42. – №. 1. – С. 13-23.

yo'nalishlari, o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari, tashkiliy asoslari hamda talab shakllanish jarayonlariga oid bir qator izlanishlarni o'tkazishgan.

O'zbekistonda, xususan Buxoro viloyatida mustaqil turistlar uchun mavjud turizm infratuzilmasining holati va uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilgan K.Yuldashev sayyohlarning turistik shaharlar bo'ylab erkin harakatlanishini ta'minlash maqsadida "Reservation Center" (band qilish markazlari) ni tashkil etish konsepsiyasi taklif etgan. Shuningdek, ushbu markazlarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari va loyiha yechimlari ishlab chiqqan⁷⁸.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot ishida mustaqil turizmni rivojlantirish jarayonlarini chuqur o'rganish maqsadida umumilmiy va maxsus ilmiy tadqiqot metodlaridan kompleks foydalanildi. Jumladan, ilmiy abstraksiya va mantiqiy tahlil usullari orqali mustaqil turizm tushunchasining nazariy asoslari va uning turizm bozoridagi o'rni aniqlashtirildi. Tizimli yondashuv asosida mustaqil turizm infratuzilmasi va tashkiliy mexanizmlar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Statistik tahlil metodi yordamida O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlar oqimi, ularning yosh va jins tarkibi bo'yicha ko'rsatkichlari o'rganildi. Taqqoslama tahlil usuli orqali xalqaro tajriba va xorijiy ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan milliy amaliyot solishtirildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali mustaqil turizmning huquqiy asoslari baholandi. Tadqiqot yakunida sintez va umumlashtirish metodlari asosida O'zbekistonda mustaqil turistlar oqimini oshirishga qaratilgan tashkiliy mexanizmlar tizimi ishlab chiqildi hamda ularning amaliy ahamiyati asoslab berildi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" gi Qonuni 3-moddasida "mustaqil turizm – turistlar tomonidan turoperatorlar va turagentlar ishtirokisiz mustaqil ravishda tashkil etiladigan sayohat" sifatida belgilab qo'yilgan. Bizning fikrimizcha, birinchidan, mustaqil turizmدا turist sayohatning barcha bosqichlari – tur yo'nalishini tanlash, transport, yashash joyi, ovqatlanish, ekskursiya va boshqa xizmatlarni bevosita o'zi tashkil etadi. Bu holat turistning tanlov erkinligini kengaytiradi hamda individual ehtiyoj va qiziqishlarga moslashtirilgan sayohatni shakllantirish imkonini beradi.

⁷⁸ K.Yuldashev. Buxoro viloyatida mustaqil turizm uchun band qilish markazlarini ("reservation center") yaratishning ustuvor yo'nalishlari. "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. No5(25) 2025.

Ikkinchidan, mazkur turizm turi bozor mexanizmlarining to'g'ridan-to'g'ri ishlashini aks ettirib, turist xizmat ko'rsatuvchilar (mehmonxona, transport kompaniyasi, muzey, ekskursiya xizmatlari va boshqalar) bilan bevosita shartnomaviy munosabatga kirishadi. Natijada vositachilik xarajatlari kamayadi, bu esa sayohatning umumiy qiymatini pasaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, mustaqil turizmning rivojlanishi raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq. Onlayn bronlash platformalari, mobil ilovalar, elektron to'lov tizimlari va raqamli xaritalar turistlarga mustaqil ravishda sayohatni rejalashtirish va boshqarish imkonini berayotganligi bois, mustaqil turizm zamonaviy turizm bozorining innovatsion segmenti sifatida namoyon bo'lmoqda.

To'rtinchidan, huquqiy nuqtayi nazardan, mustaqil turizm turistning shaxsiy mas'uliyatini oshiradi. Chunki turoperator yoki turagent kafolatlari mavjud bo'lmagan sharoitda, xavfsizlik, sug'urta, marshrut tanlash va xizmatlar sifati uchun javobgarlik asosan turistning o'z zimmasiga tushadi. Bu esa turistlardan ma'lum darajada bilim, tajriba va ehtiyotkorlikni talab etadi.

Beshinchidan, mustaqil turizm ichki turizmni rivojlantirishda muhim omil hisoblanib, aholining mahalliy hududlarga mustaqil sayohat qilishi hududiy xizmatlar bozorini faollashtiradi, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik subyektlarining daromadlarini oshiradi hamda turizm infratuzilmasining diversifikatsiyasiga olib keladi.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asosan, 2025-yilning yanvar–noyabr oylarida jami 10,7 mln nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O'zbekistonga tashrif buyurgan. Mazkur davrda mamlakatga 200 ta davlatdan turistlar kelgani qayd etilgan. Statistika ko'ra, tashrif buyurganlarning 5 850 226 nafarini erkaklar, 4 899 104 nafarini ayollar tashkil etgan. Turistlarning yosh bo'yicha taqsimoti esa, 0–18 yoshdagilar 1 383 437 nafar, 19–30 yoshdagilar 1 756 723 nafar, 31–55 yosh toifasidagilar 5 427 650 nafar bo'lgan. 56 yosh va undan katta turistlar soni esa 2 181 520 nafarni tashkil etgan⁷⁹.

“BBC Travel” global media portali ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2025-yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi 25 ta yo'nalish ro'yxatiga kiritilgan. Qayd etilishicha, 90 dan ortiq mamlakat, jumladan Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliya fuqarolari

⁷⁹ <https://kun.uz/news/2025/12/30/2025-yilning-11-oyida-ozbekistonga-107-mln-turist-tashrif-buyurdi>

O'zbekistonga vizasiz tashrif buyurishi mumkinligi sayohatni sezilarli darajada osonlashtiradi va sayyohlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi⁸⁰.

Xalqaro adabiyotlarni o'rganish hamda xorij tajribasini o'rganish natijasida O'zbekistonda mustaqil turistlar oqimini oshirishning tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqdik (1-jadvalga qarang).

1-jadval

O'zbekistonda mustaqil turistlar oqimini oshirishning tashkiliy mexanizmlari⁸¹

T/r	Tashkiliy mexanizm	Mazmuni
1	Raqamli axborot platformalarini rivojlantirish	Mustaqil turistlar uchun yagona portal yaratish
2	Turistik navigatsiya tizimini takomillashtirish	Raqamli xaritalar, QR-kodli maxsus yo'naltiruvchi belgilar orqali turistlar erkin harakatlanishini ta'minlash
3	Hududiy turizm markazlari faoliyatini yanada kuchaytirish	Viloyat va tumanlarda mustaqil turistlarga maslahat beruvchi axborot punktlarini joriy etish
4	Transport-logistika integratsiyasini izchil davom ettirish	Temir yo'l, avia va avtotransport jadvalini turistik marshrutlar bilan uyg'unlashtirish
5	Xavfsizlik va sug'urta axborot tizimini mustahkamlash	Mustaqil turistlar uchun xavfsizlik yo'riqnomalari va sug'urta mexanizmlarini soddalashtirish
6	Mahalliy xizmat ko'rsatuvchilarni sertifikatlashtirish	Mehmon uylari, gidlar, ekskursiya yetkazib beruvchilarni rasmiy reyestrda kiritish
7	Turistik kontentning ko'p tilli funksiyalarini yana takomillashtirish	Mobil ilova va axborot materiallarini ingliz va boshqa xorijiy tillarda taqdim etish
8	Self-service xizmatlarini joriy etish	Avtomatlashtirilgan chipta, bron va to'lov tizimlarini kengaytirish
9	Mustaqil turizm uchun maxsus marshrutlar ishlab chiqish	Maxsus yo'nalishlarni ishlab chiqish va targ'ib qilish
10	Mazkur yo'nalishga mahalliy	Aholini mustaqil turistlar bilan ishlashga

⁸⁰ <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-2025-yilda-sayohat-qilish-uchun-eng-yaxshi-joylar-royxatiga-kiritildi>

⁸¹ Muallif ishlanmasi

hamjamiyatni faol jalb qilish	tayyorlash
-------------------------------	------------

Shuningdek, tadqiqotlar natijasida O'zbekistonda mustaqil turistlar oqimini oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqdik(2-jadvalga qarang).

2-jadval

O'zbekistonda mustaqil turistlar oqimini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari⁸²

T/r	Iqtisodiy mexanizm	Mazmuni
1	Narxlarning shaffofligini ta'minlash	Mustaqil turistlar uchun yashash va xizmat narxlarining ochiqqligini oshirish
2	Soliq imtiyozlarini taqdim etish	Mustaqil turistlarga xizmat ko'rsatuvchi kichik biznes uchun soliq yengilliklari
3	Mikrobiznesni qo'llab-quvvatlash	Oilaviy mehmon uylari va individual xizmat ko'rsatuvchilarni subsidiyalash
4	Dinamik narxlash mexanizmini joriy etish	Mavsumdan tashqari davrda mustaqil turistlar uchun chegirmalar joriy etish
5	Raqamli to'lov tizimlarini kengaytirish	Xalqaro bank kartalari va elektron hamyonlardan foydalanishni yanada osonlashtirish
6	Transport xarajatlarini kamaytirish	Ichki va mintaqaviy yo'nalishlarda arzonlashtirilgan tariflarni joriy etish
7	Grant hamda vaucher tizimini yo'lga qo'yish	Ichki mustaqil turistlar uchun sayohat vaucherlari joriy etish
8	Investitsiya rag'batlari	O'z-o'zi xizmat ko'rsatish infratuzilmasiga xususiy investitsiyalarni jalb qilish
9	Tur paketlarni modul asosida sotish	Turist faqat kerakli xizmatlarni tanlab to'lash imkoniga ega bo'lishini ta'minlash
10	Hududiy brendlash orqali qiymat yaratish	Mahalliy hududlarning noyobligini iqtisodiy aktivga aylantirish
11	Valyuta ayirboshlash qulayligini yanada oshirish	Mustaqil turistlar uchun qulay va shaffof valyuta operatsiyalari
12	Talabni rag'batlantiruvchi	Mustaqil turistlarga yo'naltirilgan raqamli

⁸² Muallif ishlanmasi

marketing tizimini shakllantirish	reklama va cashback tizimi
-----------------------------------	----------------------------

Mazkur tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar majmui mustaqil turizmni institutsional jihatdan mustahkamlash, xarajatlarni minimallashtirish, xizmatlardan foydalanish qulayligini yanada oshirish hamda turizm xizmatlari eksportining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamlashtirish va mahalliy biznesni jalb qilish fikrimizcha, mexanizmlari mustaqil turistlar oqimini keskin oshiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar

Zamonaviy turizm bozorida mustaqil turizm global miqyosda eng tez rivojlanayotgan segmentlardan biri hisoblanib, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, turistlarning individual ehtiyojlari va harakatlanish erkinligiga bo'lgan talabning ortishi natijasida mustaqil turistlar oqimi an'anaviy paketlarga asoslangan turizmdan tobora ustunlik kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunida mustaqil turizmning huquqiy jihatdan e'tirof etilishi ushbu segmentni tizimli rivojlantirish uchun muhim institutsional asos yaratadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil turistlar oqimini oshirish faqat alohida choralardan orqali emas, balki tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning o'zaro uyg'unlashgan majmui orqali samarali amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, tashkiliy mexanizmlar jumladan, raqamli platformalar, navigatsiya, axborot ta'minoti, xavfsizlik, hududiy markazlar faoliyati mustaqil turistlar uchun qulay va universal muhitni shakllantirsa, iqtisodiy mexanizmlar ya'ni narx shaffofligi, soliq va tarif imtiyozlari, mikrobiznesni qo'llab-quvvatlash ularning sayohatga bo'lgan moliyaviy rag'batlanishini kuchaytiradi.

Shuningdek, mustaqil turizmning rivojlanishi mahalliy xizmat ko'rsatish bozorini faollashtirish, kichik biznes hamda oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, mahalliy aholini xizmat ko'rsatish jarayoniga jalb etish va sharing-economy modellarini joriy etish orqali turizm daromadlarini hududlar kesimida yanada adolatli taqsimlash imkoniyati yuzaga keladi.

Xalqaro tajriba asosidagi qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil turistlar oqimi yuqori bo'lgan mamlakatlarda turizm sohasi raqamlashtirish darajasi, ochiq axborot muhiti va xizmatlar sifatining barqarorligi bilan ajralib turadi. Shu bois, O'zbekiston sharoitida ham mustaqil turizmni rivojlantirish strategiyasi raqamli infratuzilmani kengaytirish, ko'p tilli kontent yaratish, transport va xizmatlar integratsiyasini kuchaytirishga qaratilishi lozim. Umuman olganda, mustaqil turistlar oqimini oshirishga qaratilgan tashkiliy va iqtisodiy

mexanizmlarning kompleks joriy etilishi O'zbekiston turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro turizm bozorida mamlakat imijini mustahkamlash hamda barqaror turizm eksportini shakllantirish uchun muhim strategik omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harris L., Duckworth K. The future of the independent travel agent: the need for strategic choice //Strategic Change. – 2005. – T. 14. – №. 4. – C. 209-218
2. Harun M. M., Hamat R., Ibrahim H. Adapting to the Era of Independent Tourism: Challenges and Opportunities for Travel Agencies //Borneo Engineering & Advanced Multidisciplinary International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 49-56
3. Huang W. J. et al. Serendipity and independent travel //Tourism recreation research. – 2014. – T. 39. – №. 2. – C. 169-183
4. Hyde K. F., Lawson R. The nature of independent travel //Journal of travel research. – 2003. – T. 42. – №. 1. – C. 13-23
5. Hyde K. F., Lawson R. The nature of independent travel //Journal of travel research. – 2003. – T. 42. – №. 1. – C. 13-23.
6. K.Yuldashev. Buxoro viloyatida mustaqil turizm uchun band qilish markazlarini ("reservation center") yaratishning ustuvor yo'nalishlari. "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. No5(25) 2025.
7. Paris C. M. Flashpacking: A discussion of independent travel in a digital world //Information and communication technologies in tourism 2012. – Springer, Vienna, 2012. – C. 191-202
8. Richards G., Wilson J. The global nomad: Motivations and behaviour of independent travellers worldwide //The global nomad: Backpacker travel in theory and practice. – 2004. – T. 3. – C. 14-42
9. Wilson E., Harris C. Meaningful travel: Women, independent travel and the search for self and meaning //Tourism: An International Interdisciplinary Journal. – 2006. – T. 54. – №. 2. – C. 161-172
10. Бурак Т. В. Знаковые структуры самостоятельного путешествия и организованного туристического выезда. – 2016

11. Оборин М. С. Развитие самостоятельного туризма как актуальная тенденция спроса //Сервис plus. – 2022. – Т. 16. – №. 1. – С. 15; Зырянова И. С. САМОСТОЯТЕЛЬНОЕ ПУТЕШЕСТВИЕ: СТРУКТУРА ЗАТРАТ Пермский государственный национальный исследовательский университет //Т 878 Туристско-рекреационный комплекс в системе регионального развития: материалы VII Междунар. науч.-практ. конф.–Краснодар: Кубанский гос. ун-т, 2019.–360 с.–120 экз. – С. 254

12. Сысоева С. Путешествия без турагентств. – ЛитРес, 2017; Друпова А. А. Информационная и кадровая поддержка самостоятельного туризма //Экономика. Право. Печать. Вестник КСЭИ. – 2018. – №. 3. – С. 24-29

13. Фынтынь О.А. Самостоятельный туризм в системе туристической индустрии //Совершенствование системы физического воспитания, спортивной тренировки, туризма и оздоровления различных категорий населения. – 2015. – С. 154-155

14. <https://kun.uz/news/2025/12/30/2025-yilning-11-oyida-ozbekistonga-107-mln-turist-tashrif-buyurdi>

15. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-2025-yilda-sayohat-qilish-uchun-eng-yaxshi-joylar-royxatiga-kiritildi>